



BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARINING FONETIK KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISHNING METODIK VA DIDAKTIK ASOSLARI

Kenjayeva Zilola Saminjon qizi,

O'zbekiston milliy pedagogika universiteti mustaqil izlanuvchisi.

DOI: <https://doi.org/10.54613/ku.v18i.1618>

MAQOLA HAQIDA/ О СТАТЬЕ

Qabul qilindi: 15-aprel 2026-yil

Tasdiqlandi: 17-aprel 2026-yil

Jurnal soni: 18-A

Maqola raqami: 58

KALIT SO'ZLAR/ КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА

fonetik kompetensiya, boshlang'ich ta'lim, multimedia, CAPT texnologiyasi, nutq madaniyati, fonematik idrok, integrativ yondashuv

ANNOTATSIIYA/ АННОТАЦИЯ

Mazkur maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarida fonetik kompetensiyalarni rivojlantirishning pedagogik zarurati, mavjud muammolar va ularning metodik yechimlari tahlil qilingan. Tadqiqot doirasida ishlab chiqilgan innovatsion model va raqamli texnologiyalardan (CAPT, gamifikatsiya) foydalanish metodikasining samaradorligi statistik ma'lumotlar asosida yoritilgan. Mazkur tadqiqotda boshlang'ich sinf o'quvchilarining fonetik kompetensiyalarini shakllantirish jarayoni zamonaviy pedagogik yondashuvlar asosida kompleks tarzda o'rganildi. Xususan, fonetik kompetensiyani rivojlantirishda innovatsion ta'lim texnologiyalari, raqamli resurslar hamda interaktiv metodlarning o'rni alohida tahlil qilindi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, CAPT texnologiyasi va gamifikatsiya elementlaridan foydalanish o'quvchilarning fonematik idrokini sezilarli darajada faollashtiradi, talaffuz aniqligini oshiradi hamda nutqiy faoliyatga bo'lgan qiziqishini kuchaytiradi. Shuningdek, fonetik kompetensiyani rivojlantirishda integrativ yondashuvning samaradorligi tasdiqlandi. Ona tili darslarini musiqa, o'qish va axborot texnologiyalari bilan bog'lash orqali o'quvchilarda nafaqat lingvistik, balki kommunikativ va kognitiv kompetensiyalar ham rivojlanishi aniqlandi. Tajriba-sinov ishlari natijalari fonetik mashg'ulotlarni tizimli va maqsadli tashkil etish o'quvchilarning savodxonlik darajasini oshirishga xizmat qilishini ko'rsatdi.

ABOUT THE PAPER

Accepted: 15 april 2026

Approved: 17 april 2026

Volume: 18-A

Paper number: 58

KEYWORDS

phonetic competence, primary education, multimedia, CAPT technology, speech culture, phonemic perception, integrative approach

ANNOTATION

Abstract This article analyzes the pedagogical necessity of developing phonetic competencies in primary school students, along with existing challenges and their methodological solutions. Within the framework of the research, the effectiveness of the developed innovative model and the methodology of utilizing digital technologies (CAPT, gamification) are highlighted based on statistical data. In this study, the process of forming phonetic competencies of primary school students was studied in a comprehensive manner based on modern pedagogical approaches. In particular, the role of innovative educational technologies, digital resources and interactive methods in the development of phonetic competence was separately analyzed. The results of the study showed that the use of CAPT technology and gamification elements significantly activates phonemic perception of students, increases pronunciation accuracy and increases their interest in speech activity. The effectiveness of an integrative approach to the development of phonetic competence was also confirmed. By connecting native language lessons with music, reading and information technologies, it was found that students develop not only linguistic, but also communicative and cognitive competencies. The results of experimental work showed that the systematic and purposeful organization of phonetic classes helps to increase the level of literacy of students.

Kirish. Zamonaviy jahon ta'lim tizimida shaxsning kommunikativ va nutqiy malakalarini shakllantirish ustuvor vazifalardan biri hisoblanadi. YUNESKO tomonidan ilgari surilgan "Learning to Do" (Amal qilishni o'rganish) tamoyili o'quvchilarni muloqot jarayonida to'g'ri talaffuz va fonetik madaniyatni egallashini taqozo etadi. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida fonetik kompetensiyalarni rivojlantirish nafaqat ularning til madaniyatini oshiradi, balki kelajakdagi ijtimoiy va kasbiy muvaffaqiyatlari uchun poydevor yaratadi.

Respublikamizda so'nggi yillarda ta'lim sifatini oshirish va milliy dasturlarni modernizatsiya qilish bo'yicha qabul qilingan PQ-231 va PF-134 sonli hujjatlar fonetik kompetensiyani shakllantirish metodikasini takomillashtirish zarurligini belgilab berdi. Shunga qaramay, amaliyotda fonetik mashg'ulotlar ko'pincha epizodik xarakterda bo'lib, tizimli integratsiyalashmagan. Mazkur tadqiqotning dolzarbligi boshlang'ich sinf o'quvchilarining fonetik kompetensiyasini rivojlantirishning ilmiy-nazariy asoslarini aniqlash va samarali metodik tizimni yaratish bilan izohlanadi. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida savodxonlik va til kompetensiyalarini shakllantirish jarayoni murakkab ko'p bosqichli jarayon bo'lib, uning markazida fonetik kompetensiyani rivojlantirish masalasi turadi. Fonetik kompetensiya — bu o'quvchilarning tovush tizimini anglash, fonemalarni farqlash, artikulyatsiya va talaffuzni to'g'ri amalga oshirish, tovush-harf bog'lanishini idrok etish hamda nutqning prosodik (urg'u, intonatsiya, ritm) xususiyatlarini egallash qobiliyatidir. Ushbu kompetensiya boshlang'ich sinfda savodxonlikning tayanch omili bo'lib, o'quvchilarning keyingi bosqichlardagi o'qish, yozish va nutq madaniyatini egallashiga mustahkam zamin yaratadi. Shu nuqtai nazardan, fonetik kompetensiyani shakllantirish masalasi nafaqat lingvistik, balki pedagogik muammo sifatida ham dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Adabiyotlar tahlili. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida fonetik kompetensiyalarni rivojlantirish masalasi zamonaviy pedagogika va metodika fanida dolzarb yo'nalishlardan biri sifatida qaraladi. Ushbu muammo yuzasidan olib borilgan ilmiy tadqiqotlar tahlili shuni

ko'rsatadiki, fonetik kompetensiya savodxonlikning asosiy tarkibiy qismi bo'lib, u nutqiy faoliyatning barcha bosqichlariga bevosita ta'sir ko'rsatadi.

N.R. Jalilova o'z tadqiqotlarida boshlang'ich sinf o'quvchilarida nutqiy kompetensiyani rivojlantirishda fonetik mashqlarning o'rni katta ekanligini ta'kidlab, fonematik eshituv va talaffuzni shakllantirish savod o'rgatish jarayonining asosiy komponenti sifatida qaralishini asoslab beradi [3, 42-b]. Muallifning fikricha, fonetik tayyorgarlik yetarli bo'lmagan o'quvchilarda keyingi o'qish va yozish ko'nikmalarida jiddiy qiyinchiliklar kuzatiladi.

M.X. Jumakulova savod o'rgatish davrida unli va undosh tovushlar ustida ishlash metodikasini tahlil qilib, fonetik mashqlarni bosqichma-bosqich murakkablashtirish zarurligini ko'rsatadi. Unga ko'ra, tovush-harf munosabatini o'zlashtirishda vizual va eshitish analizatorlarining birgalikdagi faoliyati muhim ahamiyatga ega [4, 57-b].

K.F. Nazarova boshlang'ich ta'limda nutqiy kompetensiyani rivojlantirish jarayonini tahlil qilar ekan, fonetik bilimlar tizimli shakllantirilmasa, o'quvchilarda orfoepik me'yorlarga rioya qilish darajasi past bo'lishini qayd etadi. Shuningdek, muallif fonetik kompetensiyani rivojlantirishda interaktiv metodlarning samaradorligini empirik asosda isbotlaydi [5, 39-b].

N. Mahmudov nutq madaniyati va til me'yorlari masalasiga e'tibor qaratib, to'g'ri talaffuz va fonetik madaniyat shaxsning umumiy kommunikativ kompetensiyasini belgilovchi asosiy omillardan biri ekanligini ta'kidlaydi. U fonetik me'yorlarga amal qilishni faqat lingvistik emas, balki ijtimoiy-madaniy hodisa sifatida talqin qiladi [6, 118-b].

K.S. Temirova esa nutqiy kompetensiyaning tarkibiy qismlarini tahlil qilar ekan, fonetik kompetensiyani uning boshlang'ich va fundamental bo'g'ini sifatida ajratadi. Muallifning fikricha, fonetik ko'nikmalarni shakllantirishda audiolingval va kommunikativ yondashuvlarni uyg'unlashtirish samarali natija beradi [7, 21-b].

Shuningdek, xalqaro pedagogik adabiyotlarda ham fonetik kompetensiyani rivojlantirish masalasi raqamli texnologiyalar bilan bog'liq holda o'rganilmoqda. Xususan, CAPT (Computer-Assisted Pronunciation Training) texnologiyasi orqali talaffuzni avtomatik tahlil qilish va korreksiya qilish imkoniyati o'quvchilarning fonetik savodxonligini oshirishda muhim vosita sifatida e'tirof etilmoqda [2, 64- b].

Tahlil qilingan ilmiy manbalar shuni ko'rsatadiki, fonetik kompetensiyani rivojlantirish masalasi ko'p komponentli bo'lib, u fonematik eshituv, talaffuz madaniyati, orfoepik me'yorlar va zamonaviy raqamli texnologiyalar integratsiyasini talab etadi. Shu sababli, boshlang'ich ta'lim jarayonida fonetik kompetensiyani shakllantirishga yo'naltirilgan metodik tizimni takomillashtirish dolzarb ilmiy-pedagogik vazifa hisoblanadi.

Metodologiya. Tadqiqot jarayonida nazariy, pedagogik-psixologik manbalarni qiyosiy tahlil qilish, modellashtirish va sotsiometrik usullardan (anketa, test, suhbat) foydalanildi. Yuqoridagi olimlarni ilmiy ishlarini tahlil qilar ekanmiz, boshlang'ich ta'lim bosqichida fonetik kompetensiyani shakllantirish masalasi savodxonlik, nutq madaniyati va keyingi til ko'nikmalarining barqaror rivojlanishi uchun poydevor vazifasini bajaradi. Fonetik kompetensiya — o'quvchilarning tilning tovush tizimini idrok etish, fonemalarni farqlash, tovush-harf munosabatini anglash, orfoepik me'yorlarga amal qilgan holda to'g'ri talaffuz qilish hamda nutqning prozodik jihatlarini (urg'u, intonatsiya, ritm) boshqara olish qobiliyatlarini majmuidir. Ushbu kompetensiyani ta'lim jarayonida samarali rivojlantirish uchun, avvalo, fonetika va fonologiyani ilmiy-nazariy asoslarini aniq belgilash, so'ngra ular asosida metodik yechimlar ishlab chiqish zarurli kelib chiqadi.

Pedagogik tajriba-sinov ishlari Farg'ona, Samarqand va Surxondaryo viloyatlaridagi maktablarda jami 303 nafar respondent ishtirokida o'tkazildi.

Metodikaning takomillashtirilgan qismi quyidagilarni o'z ichiga oladi: Multimedia va CAPT texnologiyalari: Fonetik birliklarni vizuallashtirish va talaffuzni kompyuter yordamida baholash vositalarini qo'llash.

Gamifikatsiya: Fonetik mashqlarni o'yin shaklida tashkil etish orqali o'quvchilarning motivatsiyasini oshirish. Integrativ topshiriqlar: Fonetik kompetensiyani ona tili, o'qish, musiqa va boshqa fanlar bilan bog'liqlikda rivojlantirish. Diagnostik model: O'quvchilarning kognitiv, motivatsion va kreativ darajalarini o'lchash uchun maxsus mezonlar ishlab chiqildi.

Natijalar. O'tkazilgan tajriba-sinov natijalari shuni ko'rsatadiki, taklif etilgan metodika asosida dars o'tilgan guruhlarda sezilarli o'sish kuzatildi. Matematik-statistik tahlillar quyidagi ko'rsatkichlarni namoyon etdi:

Tovushlarni to'g'ri talaffuz qilish ko'nikmasi 14% ga oshdi.
So'zning fonetik tahlilini bajarish darajasi 13% ga yaxshilandi.

Nutq ravonligi va talaffuz madaniyati ko'rsatkichi 14% ga yuksaldi.
Amaliy namuna masalan, "So'zdagi urg'u va ohangni to'g'ri talaffuz

qilish" mavzusida fonetik dars quyidagicha tashkil etilishi mumkin. Kreativlik: o'quvchilar urg'u joyini o'zgartirib, so'zning ma'nosi qanday o'zgarishini ijodiy tarzda tahlil qiladi. Kritik fikrlash: o'qituvchi so'zlarning talaffuzi haqida turli variantlar beradi, o'quvchilar ularni tahlil qilib, to'g'risini asoslaydi. Kommunikativlik: o'quvchilar juftlikda yoki kichik guruhlarda so'zlarni talaffuz qilib, nutqdagi ifodaviylikni mashq qiladilar. Kollaboratsiya: guruh a'zolari o'zaro fikr almashadi, talaffuzdagi xatolarni birgalikda tuzatadi, umumiy xulosa chiqaradi. Bunday dars jarayonida o'quvchilar nafaqat fonetik ko'nikmani mustahkamlaydi, balki muloqot, hamkorlik, ijodkorlik va tahlil asosida o'rganishga o'rganadi. 4K modeli asosida tashkil etilgan fonetik mashg'ulotlar o'quvchilarni nutq madaniyatiga o'rgatishda integrativ, ijodiy va hamkorlikka asoslangan yondashuvni ta'minlaydi. Bu esa boshlang'ich ta'lim jarayonida fonetik kompetensiyani shakllantirishning innovatsion mexanizmi sifatida ahamiyat kasb etadi. Ijodiy yondashuv va texnologik fikrlash mezonlari bo'yicha tajriba guruhi o'quvchilarni nazorat guruhiga nisbatan 13-14% yuqori natija qayd etdi. Statistik ishonchlik Student kriteriyasi yordamida tasdiqlandi (t-qiymat kritik qiymatdan katta, o'qitish sifati koeffitsienti 1 dan yuqori). Bu esa ishlab chiqilgan modelning samaradorligini to'liq isbotlaydi.

Tajriba-sinov ishlari natijalarini yanada chuqur tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, taklif etilgan metodika faqatgina fonetik ko'nikmalarni emas, balki o'quvchilarning umumiy nutqiy faolligi va kognitiv rivojlanish darajasini ham ijobiy tomonga o'zgartirgan. Xususan, dars jarayonida faol ishtirok etish darajasi tajriba guruhida 12,6% ga oshgani qayd etildi, bu esa interaktiv va gamifikatsiyaga asoslangan yondashuvning motivatsion samaradorligini tasdiqlaydi.

Shuningdek, o'quvchilarning fonematik eshituv sezgirligi bo'yicha o'tkazilgan diagnostik testlar natijasida tovushlarni farqlash aniqligi 15% ga yaxshilangani aniqlandi. Bu holat CAPT texnologiyasi va multimedia vositalarining fonetik idrokni rivojlantirishdagi samaradorligini ko'rsatadi.

Nazorat va tajriba guruhlar o'rtasidagi farqlar dispersiya tahlili (ANOVA) asosida ham tekshirildi va natijalar statistik jihatdan ishonchli ekanligi tasdiqlandi ($p < 0.05$). Bu esa kuzatilgan o'zgarishlar tasodifiy emas, balki qo'llanilgan metodikaning bevosita ta'siri ekanligini anglatadi.

Bundan tashqari, o'quvchilarning mustaqil ishlash ko'nikmasi va fonetik tahlil qilish tezligi ham sezilarli darajada yaxshilangan bo'lib, o'rtacha bajarish vaqti 18% ga qisqargani qayd etildi. Bu esa metodikaning nafaqat sifat, balki samaradorlik jihatdan ham ijobiy natija berganini ko'rsatadi.

Olingan natijalar fonetik kompetensiyani rivojlantirishda integrativ, raqamli va 4K modeli asosidagi yondashuvlarning yuqori samaradorligini tasdiqlaydi hamda boshlang'ich ta'limda ushbu metodik tizimni keng joriy etish zarurligini asoslaydi.

Tajriba-sinov natijalari

№	Ko'rsatkichlar	Pre-test (%)	Post-test (%)	O'sish darajasi (%)
1	Tovushlarni to'g'ri talaffuz qilish ko'nikmasi	68%	82%	+14%
2	So'zning fonetik tahlilini bajarish darajasi	65%	78%	+13%
3	Nutq ravonligi va talaffuz madaniyati	70%	84%	+14%
4	Fonematik eshituv sezgirligi	66%	81%	+15%
5	Dars jarayonida faol ishtirok etish darajasi	72%	84.6%	+12.6%
6	Mustaqil fonetik tahlil bajarish tezligi	60%	78%	+18% (vaqt qisqarishi)

Muhokama. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, fonetik kompetensiya shunchaki tovushlarni o'rganish emas, balki tilning tovush tizimini idrok etish, orfoepik me'yorlarga amal qilish va nutqning prozodik (urg'u, intonatsiya) xususiyatlarini boshqarish qobiliyatidir. S.A. Adilova va N.R.Jalilova kabi olimlarning qarashlari bilan hamohang ravishda, fonetik mashqlarni nazariy va amaliy mashqlar uyg'unligida o'qitish zarurligi o'z tasdig'ini topdi. Innovatsion yondashuvning o'ziga xosligi fonetik kompetensiyani savodxonlikni rivojlantiruvchi tayanch omil sifatida qarashida va unga diagnostik baholash tizimini joriy etishdadir. Shuningdek, darsliklar mazmuniga multimedia va vizuallashtirish elementlarining singdirilishi o'quvchilarning fonematik eshituvini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalarini tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, boshlang'ich sinf o'quvchilarida fonetik kompetensiyani rivojlantirish jarayonida innovatsion yondashuvlar an'anaviy metodlarga nisbatan sezilarli ustunlikka ega. Xususan, CAPT texnologiyasi va gamifikatsiya

elementlarining qo'llanilishi o'quvchilarning nafaqat talaffuz ko'nikmalarini, balki ularning mustaqil fikrlash va tahlil qilish qobiliyatlarini ham faollashtirgan.

Olingan natijalar shuni tasdiqlaydiki, fonetik kompetensiyani shakllantirish jarayoni faqat lingvistik bilimlar doirasida emas, balki psixologik va kognitiv jarayonlar bilan ham chambarchas bog'liqdir. O'quvchilarda fonematik idrokning rivojlanishi ularning diqqat, eshitish xotirasi va analitik fikrlash darajasiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Bu esa fonetik mashg'ulotlarni tizimli va bosqichma-bosqich tashkil etish zarurligini yana bir bor tasdiqlaydi.

Shuningdek, 4K modeli asosida tashkil etilgan darslar (kreativlik, kritik fikrlash, kommunikativlik va kollaboratsiya) o'quvchilarda faollik va o'zaro hamkorlik madaniyatini shakllantirishda muhim rol o'ynadi. Ayniqsa, guruhli ish va juftlikda bajariladigan fonetik topshiriqlar o'quvchilarning nutqiy faolligini oshirish bilan birga, ularning ijtimoiy muloqot ko'nikmalarini ham rivojlantirdi.

Ilmiy adabiyotlar bilan qiyosiy tahlil shuni ko'rsatadiki, olingan natijalar N.R. Jalilova, K.S. Temirova hamda N. Mahmudovlarning fonetik kompetensiya va nutq madaniyati haqidagi nazariy qarashlarini amaliy jihatdan tasdiqlaydi. Biroq, mazkur tadqiqotning yangiligi fonetik kompetensiyani raqamli texnologiyalar va diagnostik baholash tizimi bilan integratsiyalashgan holda rivojlantirish modelini taklif etishida namoyon bo'ladi.

Muhokama natijalari shuni ko'rsatadiki, fonetik kompetensiyani rivojlantirishda an'anaviy va innovatsion metodlarning uyg'unligi eng samarali yondashuv hisoblanadi. Bu yondashuv boshlang'ich ta'lim sifatini oshirish bilan birga, o'quvchilarning kommunikativ va kognitiv kompetensiyalarini kompleks rivojlantirishga xizmat qiladi.

Xulosa. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida fonetik kompetensiyalarni rivojlantirish metodikasini takomillashtirish zamonaviy ta'lim tizimining eng muhim va dolzarb yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Chunki aynan boshlang'ich bosqichda shakllangan fonetik bilim va ko'nikmalar keyingi o'quv jarayonlarida savodxonlik, to'g'ri yozish, ravon o'qish hamda nutq madaniyatining mustahkam poydevorini yaratadi. Shu jihatdan olib borilgan tadqiqot natijalari fonetik kompetensiyani rivojlantirish jarayonini ilmiy asosda tashkil etish zarurligini yana bir bor tasdiqladi.

Tadqiqot davomida olingan natijalar asosida fonetik kompetensiyani rivojlantirishning takomillashtirilgan modeli ishlab chiqildi. Ushbu modelda fonematik eshituvni rivojlantirish, tovush-harf munosabatini mustahkamlash, orfoepik me'yorlarni shakllantirish hamda prosodik elementlar (urg'u, intonatsiya, ritm) ustida ishlash bosqichlari izchil va

tizimli tarzda integratsiya qilindi. Modelning asosiy afzalligi shundaki, u an'anaviy yondashuvlarni zamonaviy pedagogik texnologiyalar bilan uyg'unlashtirishga asoslanadi.

Shuningdek, CAPT texnologiyasi va multimedia vositalaridan foydalanish asosida ishlab chiqilgan vizuallashtirilgan metodika amaliyotga joriy etildi. Ushbu yondashuv o'quvchilarning eshitish va ko'rish analizatorlari orqali fonetik materialni chuqurroq idrok etishiga imkon yaratdi. Natijada o'quvchilarning talaffuz aniqligi, fonemalarni farqlash qobiliyati va nutqiy faolligi sezilarli darajada oshdi. Bu esa raqamli texnologiyalarni ta'lim jarayoniga integratsiya qilish fonetik kompetensiyani rivojlantirishda samarali vosita ekanligini ko'rsatadi.

Tadqiqot jarayonida ishlab chiqilgan metodik tavsiyalar "Ona tili va uni o'qitish metodikasi" darsligi mazmuniga singdirilishi esa ilmiy natijalarning amaliyotga tatbiq etilganligini anglatadi. Bu holat metodikaning faqat nazariy darajada qolib ketmasdan, real ta'lim jarayoniga joriy etilganini va uning samaradorligini yanada oshirganini ko'rsatadi.

Umuman olganda, olib borilgan tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, fonetik kompetensiyani rivojlantirishga yo'naltirilgan innovatsion yondashuvlar o'quvchilarning nafaqat savodxonlik darajasini oshiradi, balki ularning kommunikativ, kognitiv va ijtimoiy kompetensiyalarini ham rivojlantiradi. Bu esa boshlang'ich ta'lim sifatini yangi bosqichga olib chiqishga xizmat qiladi hamda ta'lim jarayonini zamonaviy pedagogik talablarni asosida takomillashtirish imkonini beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Jalilova N.R. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida nutqiy kompetensiyani rivojlantirish.
2. Jumakulova M.X. Savod o'rgatish davrida unli tovushlar ustida ishlash usullari.
3. Nazarova K. F. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida nutqiy kompetensiyani rivojlantirish jarayonini loyihalashning mavjud holatini tahlil qilish // *Interscience Research Journal*. – 2023. – №7. – B. 38–43.
4. Mahmudov N. Nutq madaniyati va davlat tilida ish yuritish. – Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2018. – 320 b.
5. Temirova K. S. Nutqiy kompetensiyaning turlari, mazmun-mohiyati va elementlari // *Pedagogik mahorat*. – 2022. – №6. – B. 19–24.
6. Adilova S.A. Boshlang'ich ta'limda nutqiy kompetensiyani shakllantirish metodikasi. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2021. – 184 b.
7. Fedorov A.V. *Foundation of General Translation Theory (Linguistic Problems)*. – Moscow: Filologiya Tri, 2002. – 416 p.
8. Jakobson R. *On linguistic aspects of translation // On Translation*. – Harvard University Press, 1959. – P. 232–239.

9. Passov E.I. *Kommunikativ metodika obucheniya inostrannym yazykam*. – Moscow: Prosveshchenie, 1991. – 287 s.

10. Vygotsky L.S. *Myshlenie i rech (Thinking and Speech)*. – Moscow: Labyrinth, 1999. – 352 s.

11. Richards J.C., Rodgers T.S. *Approaches and Methods in Language Teaching*. – Cambridge: Cambridge University Press, 2014. – 419 p.

12. Solovova E.N. *Metodika obucheniya inostrannym yazykam*. – Moscow: AST, 2018. – 304 s.

13. Brown H.D. *Teaching by Principles: An Interactive Approach to Language Pedagogy*. – New York: Pearson Education, 2007. – 491 p.

14. UNESCO. *Education for Sustainable Development Goals: Learning Objectives*. – Paris, 2017. – 62 p.

15. O'zbek tilshunosligi va metodika masalalari (ilmiy to'plam). – Toshkent: O'zbekiston FA, 2020. – 250 b